NAQSHBANDIYA TARIQATI SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNI

Orzubek Jo'rayev
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Yurtimiz tarixida ajralmas sahifa sifatida e'tirof etiladigan Naqshbandiya tariqati shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada tinchlik siyosati hukmron bo'lgan va ilm-fan, madaniyat gullab yashnagan. Ushbu davrda o'lkamizda Temuriylar sulolasi hukumronlik qilgan va temuriy shag'zodalarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi juda katta bo'lgan. Shuningdek, ushbu davrda o'lkamizda islomiy ilmlar taraqqiy etgan va ko'plab ilm markazlari maktablar faoliyat olib borilgan. Ushbu davr yana shunisi bilan ajralib turadiki, bu davrda o'lkada millatlararo totuvlik, e'tiqodiy hurlik va diniy bag'rikenglik barqaror bo'lgan.

Mazkur maqolada Naqshbandiya tariqati tarixi rivojlanishi va jamiyatning taraqqiy etishiga qo'shgan hissasi markaziy osiyoning svilizatsiyasiga tasiri haqida ma'lumot berishni maqsad qildik. Avvalombor tasavvuf ta'limotining yuzaga kelishi haqida ozgina to'xtalib o'tsak. Markaziy Osiyo tasavvufi uzoq va boy tarixga ega. Islom sivilizatsiyasining Hijoz, Iroq, Shom, Misr, Xuroson kabi yirik markazlari qatorida qadimiy Movarounnahr ham tasavvuf beshiklaridan biri sifatida dong taratdi. O'lkamizda yirik so'fiylik maktablari, oqimlari va tariqatlari vujudga kelib, dunyoga mashhur so'fiylar yetishib chiqdi.

VIII-IX asrlarda Madina, Basra, Ko'fa va Xuroson zohidlik maktablari bilan bir vaqtda Markaziy Osiyo zohidlik maktabi, shuningdek, IX-XI asrlarda Nishopur, Misr, Damashq va Bag'dod so'fiylik maktablari bilan birga Markaziy Osiyo so'fiylik maktabi ham mavjud bo'lganligi ta'kidlanadi[1], IX-XI asrlarda shakllangan va faoliyat ko'rsatgan o'n ikki so'fiylik oqimidan ikkitasi – hakimiya va sayyoriya oqimlari, shuningdek, XII asrdan boshlab islom dunyosining turli burchaklarida vujudga kelgan ellikdan ortiq

[1] Razzoqov G', Rahimov K. Xojagon - Naqshbandiya tariqati va yetti pir. – Тошкент: O'zbekiston, 2020. – B.9.

so‘fiylik tariqatidan to‘rttasi Yassaviya, xojagon-naqshbandiya, kubraviya va ishqiya tariqatlarining aynan Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi yurtimizning tasavvuf ta’limoti shakllangan va rivojlangan markazlardan biri ekanligidan dalolat beradi[2]. Mazkur so‘fiylik maktablari, oqimlari va tariqatlari orasida xojagon-naqshbandiya tariqati alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, islom dunyosida dastlab zohidlik harakati ko‘rinishida VIII asr o‘rtalarida vujudga kelgan tasavvuf o‘z tarixiy taraqqiyoti jarayonida zohidlik davri (VIII-IX asrlar), so‘fiylik maktablari va oqimlari davri (IX-XI asrlar) hamda so‘fiylik tariqatlari davri (XII asrdan keyin) deb nomlanuvchi uch davrni bosib o‘tdi. Aytish joizki, tasavvuf tarixining biz eslatib o‘tgan uch davridan ilk ikki davri so‘fiylik harakatining anchagina takomillashgan va markazlashgan ko‘rinishdagi taraqqiyoti davri – tariqatlar davri uchun o‘ziga xos tayyorgarlik davri bo‘lib xizmat qildi. So‘fiylik harakati vujudga kelgan va keng yoyilgan mintaqalardan biri bo‘lmish Markaziy Osiyo ham VIII-XI asrlarda zohidlik davri hamda so‘fiylik maktablari va oqimlari davrini boshidan kechirdi.

Xojagon-naqshbandiya tariqati to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom dunyosi tasavvufi taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan ushbu ta’limotning vujudga kelishi uchun zamin bo‘lib xizmat qilgan omillar va shart-sharoitlar to‘g‘risida, umumiy bo‘lsa-da, tasavvur hosil qilishni lozim deb bildik. Zero, xojagon-naqshbandiya tariqati quruq yerda paydo bo‘lgan yoki, shu paytgacha tasavvur qilinganidek, to‘laligicha boshqa o‘lkalardan yurtimizga olib kelingan ta’limot bo‘lmasdan, Markaziy Osiyoda uning vujudga kelishi uchun muayyan omillar va shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, Markaziy Osiyoda xojagon-naqshbandiya tariqati vujudga kelguniga qadar bo‘lgan davrda ham tasavvuf jarayonlari kechgan bo‘lib, ular XII asrdan boshlab islom dunyosining turli o‘lkalari, jumladan, qadimiy Movarounnahrda vujudga kela boshlagan so‘fiylik tariqatlari, xususan, xojagon-naqshbandiya tariqatining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Shunga ko‘ra,

[2] Razzoqov G‘,Rahimov K. Xojagon - Naqshbandiya tariqati va yetti pir. – B.10.

so‘zimiz boshida Markaziy Osiyo tasavvufi tarixining VIII-XI asrlarda kechgan davri to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tishga qaror qildik.

Xojagon-naqshbandiya tariqati uzoq tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo tasavvuf Hakim Termiziy (205/820-320/932), Abu Bakr Kalobodiy (305/917-385/995), bevosita muayyan tashkilot sifatida vujudga kelishi Xoja Yusuf Hamadoniyning Mustamliy Buxoriy (vaf. 434/1043) kabi so‘fiylar va tasavvuf nazariyotchilari g‘oyalaridan ta’sir olgan. Shunday bo‘lsa-da, xojagon-naqshbandiya tariqatining (440-1048-535/1140) o‘z ta’limotini yoyish va shogirdlar tarbiyalash maqsadida O‘rta Osiyoga kelishi, Buxoro shahrida xonaqoh ochib, bu yerda o‘z sufiylik maktabiga asos solishi bilan bog‘liqdir[3].

Garchi Hamadoniy ko‘plab muridlar tarbiyalagan, jumladan, ulardan to‘rttasi – mazkur silsilaga ketma-ket rahbarlik qilgan Xol Hasan Andaqiy, Xoja Abdulloh Baraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy va Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy uning asosiy shogirdlari hisoblangan bo‘lsalar-da, ilk ikki shogirddan keyin silsila rahbarligini o‘z zimmasiga olgan Yassaviy va G‘ijduvoniylargina xojagon ta’limotini rivojlantirib, mazkur silsilani so‘fiylik tariqatiga aylantirishga, ya’ni o‘z mustaqil tariqatlariga – xojagoniya hamda asli xojagon silsilasidan ildiz olgan yassaviya tariqatlariga asos solishga muvaffaq bo‘ldilar. Xojagon-naqshbandiya manbalari ham aynan Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyning ushbu tariqat asoschisi ekanligini ta’kidlaydilar. Jumladan, “Rashahot ayn al-hayot” muallifi G‘ijduvoniyni “Xojagon zanjirining bosh halqasi”, Xojagon tabaqasining asoschisi va azizon silsilasining boshlovchisi» deb tanishtirar ekan, uning hayot tarzi barchaga o‘rnak va barcha guruhlar uchun maqbul ekanligini ma’lum qiladi?.

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, umuman, Xojagon-naqshbandiya tariqati, jumladan, uning xojagoniya bosqichi asoschisi sifatida ushbu tariqatning shariat va sunnatga qattiq rioya qilish, tavba va irodat bilan boshlanuvchi sayru suluk maqomlarini bosib o‘tish, zikri xafiy hamda sakkiz rashha (hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht)dan iborat bo‘lgan ilk asoslarini shakllantirib berdi. Undan so‘ng tariqat rahbarligini o‘z zimmasiga olgan Xoja Muhammad

[3] Раҳимов К. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2020 – B.10.

Orif Revgariy (taxm. 560/1165-660/1262), Xoja Mahmud Anjirfag‘naviy (taxm. VII/XIII asr bosh.), Xoja Ali Romitaniy (taxm. 591/195–721/321), Xoja Muhammad Bobo Samosiy (taxm. VII, XIII asr o‘rta. –736/1335) va Sayyid Amir Kulollar (taxm. 680/1281-712/1370) ham G‘ijduvoniy ta’limotining asosiy qismini davom ettirgan bo‘lsalar-da, Xoja Mahmud Anjirfag‘naviy davridan boshlab zikri xafiy o‘rnini zikri jahriy egalladi. Xojagon-naqshbandiya tariqatidagi bu amaliyot Xoja Bahouddin Naqshband davriga qadar davom etdi. Naqshband faoliyati bilan xojagon-naqshbandiya tariqatining xojagoniya bosqichi poyoniga yetib, naqshbandiya bosqichi boshlandi.

Xoja Bahouddin Naqshband, birinchi navbatda, zikri xafiyni qaytadan joriy etdi, Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G‘ijduvoniy tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz rashhaga uchta yangi rashha (vuqufi zamoniy, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy) qo‘shib, ularning sonini o‘n bittaga yetkazdi. Bahouddin Naqshband tarkidunyochilik va go‘shanishinlikni inkor etarkan, odamlar bilan faol munosabatda bo‘lish va kasb-kor bilan shug‘ullanish, shuningdek, bir lahza bo‘lsa-da, Allohni esdan chiqarmaslikni targ‘ib etdi. Xoja Bahouddin Naqshband vafotidan keyin uning xalifalari Xoja Alouddin Attor (vaf. 802/1400) va Xoja Muhammad Porso (749/1348-822/1420) xojagon-naqshbandiya tariqatining jipslashuvi, tashkiliy tuzilmasining mustahkamlanishi hamda ushbu tariqat ta’sirining keng yoyilishida katta rol o‘ynashdi. Ular davrida Movarounnahrning deyarli barcha yirik va o‘rtacha shaharlarida xojagon-naqshbandiya tariqatining xonaqohlari paydo bo‘ldi. Xoja Ubaydulloh Ahror (806/1404-895/1490) rahbarligi davrida esa ushbu tariqat katta iqtisodiy va siyosiy nufuzga ega bo‘ldi.

Ubaydulloh Ahrorning temuriy hukmdorlar bilan yaqin munosabatlari Xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi ijtimoiy-siyosiy faolligini belgilab berdi“. Temuriylar sulolasi inqirozidan so‘ng sustlashib qolgan xojagon-naqshbandiya tariqatining faoliyati X/XVI asrning birinchi yarmida Maxdumi A’zam nomi bilan mashhur bo‘lgan Sayyid Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy (868/1464-956/1549), X-XVI asrning ikkinchi yarmi-XI/XVII asrda esa Buxorodagi Jo‘ybor xojalari tomonidan davom ettirildi. XI/XVII asrning oxirlaridan Xojagon-naqshbandiya tariqatining xorijiy mamlakatlarda keng yoyilgan naqshbandiya-mujaddidiya tarmog‘i O‘rta Osiyoga kirib keldi va XIX asrning

ikkinchi yarmida – Buxoro amirligining 1785-1800 yillardagi hukmdori, ushbu tariqat a’zosi Amir Shohmurod (1785–1800) zamonida chuqur ildiz otdi.

Tasavvufda naqshbandiylik tariqatining silsilasini o‘rganish ham juda muhim bo‘lib bu “irodat silsilasi” deb nomlanadi, murshid (shayx, pir) tomonidan muridga, o‘z navbatida, murshid (shayx, pir)ga aylangan murid tomonidan uning muridlariga uzluksiz ravishda uzatib boriladigan vorislik asosidagi murshidlik-muridlik zanjiri, so‘fiylik an’anasining bir avloddan keyingi avlodga uzluksiz ravishda uzatib borilishini ta’minlaydigan murshidlik-muridlik tizimiga aytiladi. Shuningdek, ba’zida «irodat silsilasi» deganda, biror murshid (shayx, pir)ning o‘z murshidi (shayxi, piri)ni va o‘z murshidi (shayxi, piri)ning murshidlari (shayxlari, pirlari)ni ushbu zanjirning oxirgi halqasi bo‘lmish o‘zidan boshlab mazkur zanjirning boshiga qarab uzluksiz tarzda nomma-nom aytib borishidan hosil bo‘lgan murshidlar (shayxlar, pirlar) ro‘yxati tushuniladi.

Xojagon-naqshbandiya tariqatiga, aytib o‘tganimizdek, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy tomonidan asos solingan bo‘lsa-da, ushbu tariqat vakillari o‘z irodat silsilalarini Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga olib borib taqashadi. Ya’ni, ularning ta’kidlashlaricha, ushbu tariqat Muhammad (s.a.v.)dan boshlangan murshidlik-muridlik tizimining davomidir. Biroq xojagon-naqshbandiya tariqatiga mansub turli manbalarda ushbu silsilaning Payg‘ambar (s.a.v.)dan kimlar va necha vosita orqali Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniygacha yetib kelganligi to‘g‘risida turlicha ma’lumot berilgan. Jumladan, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyning o‘zi «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy» asarida ustozi Xoja Yusuf Hamadoniydan naql qilgan holda, irodat silsilasining Muhammad (s.a.v.)dan yetti vosita orqali o‘ziga yetib kelganligi hamda o‘zining bu silsilada to‘qqizinchi halqa piri ekanligini aytib, mazkur silsilani quyidagicha bayon etgan[4]:

1) Muhammad (s.a.v.);

2) Abu Bakr Siddiq (r.a.) (vaf. 13/634);

3) Salmon Forsiy (vaf. 33/654);

4) Ja’far ibn Muhammad Sodiq (83/702- 148/765);

[4] Razzoqov G‘,Rahimov K. Xojagon - Naqshbandiya tariqati va yetti pir. – B.31.

5) Boyazid Bistomiy (vaf. 262/875);

6) Abulhasan Xaraqoniy (352/963-425/1033);

7) Abu Ali Formadiy (402/011-4771084);

8) Xoja Yusuf Hamadoniy (440/1048-535/1140);

9) Abduxoliq G‘ijduvoniy[5].

Xojagon-naqshbandiya tariqatining mo‘tabar manbalaridan hisoblangan “Rashahot ayn al-hayot” (“Tiriklik bulog‘i tomchilari”) asarida esa murshidlik-muridlik rishtasining Muhammad (s.a.v.)dan quyidagi yo‘l orqali xojagon-naqshbandiya tariqati pirlariga yetib kelganligi aytilgan[6]:

1) Muhammad (s.a.v.);

2) Abu Bakr Siddiq (r.a.);

3) Salmon Forsiy;

4) Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr Siddiq;

5) Ja’far ibn Muhammad Sodiq;

6) Boyazid Bistomiy;

7) Abulhasan Xaraqoniy;

8) Abulqosim Go‘rakoniy;

9) Xoja Abu Ali Formadiy;

10) Xoja Yusuf Hamadoniy;

11) Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy[7].

Biroq xojagon-naqshbandiya tariqati asoschilari ushbu yo‘l orasida Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)dan birinchi xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a.) orqali Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy yetib keladigan yo‘lni asosiy silsila hisoblashgan. Jumladan, yuqorida aytib

[5] Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Мақомоти Юсуф Ҳамадоний (Таржимон, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: Сайфиддин Сайфуллоҳ, Нодирхон Ҳасан; Масъул муҳаррир: Иброҳим Ҳаққул]. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2003. – Б. 7.

[6] Razzoqov G‘,Rahimov K. Xojagon - Naqshbandiya tariqati va yetti pir. – Тошкент: O‘zbekiston, 2020. – B.32.

[7] Муҳаммад Толиб ибн Тожиддин Ҳасанхожа Хусайний Сиддиқий. Матлаб ут-толибин (форс тилида) / ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти; нашрга тайёрловчилар Ғулом Каримий, Эркин Миркомилов; масъул муҳаррир: Ҳалим Тўраев. – Тошкент: “Movarounnahr”, 2012. – Б.7.

o‘tilganidek, G‘ijduvoniyning “Maqomoti Yusuf Hamadoniy” asarida ma’lum qilinishicha, Yusuf Hamadoniy shogirdi G‘ijduvoniyga ushbu tariqat silsilasining Abu Bakr Siddiq (r.a.) orqali Xoja Abu Ali Formadiygacha yetib kelganini, formadiylar esa o‘ziga yetib kelganini aytgan, Xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi davrlardagi mualliflari ham ushbu tariqat ildizlarini Abu Bakr Siddiq (r.a.) zamoniga taqashar ekan, mazkur silsilaning turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalganligi to‘g‘risida aytib o‘tishgan. Muhammad ibn Sulaymon al-Bag‘doshiyning (XVIII asr oxiri – XIX asr boshlari) “Hadikat un-nadiya”, Muhammad, Amii al-Kurdiyning (1860–1914) “Kitob al-mayotib as-sarmadiya” hamda Muhammad As’ad Sohibzodaning (1928 y, tuk.) “Fukuot ul-Kolidiya” asarlarida xojagon-naqshbandiya tariqatining Abu Bakr Siddiq (r.a.) zamonidan boshlab quyidagi nomlar bilan atalganligi eslatilgan:

1. Abu Bakr Siddiq zamonidan Boyazid, Bistomiy davrigacha siddiqla.

2. Boyazid Bistomiy zamonidan Xoja Abduxoliq, G‘ijduvoniy davriga qadar Bistomiyning “Tayfur” degan ismidan kelib chikkan holda tayfuriya.

3. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy zamonidan Xoja Bahouddin Naqshband davrigacha xojagon yoki xojagoniy.

4. Xoja Bahouddin Naqshband, davridan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror (806/1404-895/1490) zamonigacha naqshbandiy.

5. Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahrordan keyin naqshbandiya.

6. Sayyid Ahmad ibn Jaloliddin Kosonshit (868/1464 956/1549) davridan keyin naqshbandiya. Shunga qaramasdan mazkur tariqat Monarounnahrdagi butun tarixi davomida, jumladan, Xo‘ja Bahouddin Naqshband va Xo‘ja Nosiriddin Ubaydulloh Ahrordan keyin ham ko‘proq xojagon yoki xojagoniya nomi bilan eslangan[8].

Xojagon-naqshbandiya tariqati XVI - XVII asrlardan boshlab Hindiston va Yaqin Sharqning turli mamlakatlariga tarqalgach, mazkur o‘lkalarda uning turli tarmoqlari vujudga keladi. Jumladan, ushbu tariqatning Shayx Ahmad Forukiy Sirhindiy (971/1564-1054/1624) tomonidan Hindistonda asos solingan tarmog‘i mujaddidiya, Shamsiddin

[8] Заринкўб, Абдулҳусайн. Эрон тасаввуфи борасида изланиш (давоми) (форс тилида). – Теҳрон: “Амири Кабир”, 1376/1997. — Б. 206-207.

Habibulloh Mazhar (1111/699-1195/1781) tomonidan Hindistonda asos solingan tarmog‘i mazhariya, Mavlono Ziyouddin Xolid (1193/1779-1242/1827) tomonidan Iroq va Suriyada asos solingan tarmog‘i xolidiya deb atala boshlaydi. Biroq mazkur tarmoqlar, asosan, naqshbandiya deb atalar yoki naqshbandiya nomi ushbu tarmoqlar nomining tarkibida saqlanib qolgandi[9]. Bularning barchasi ushbu tariqatning asoschisi va birinchi rahbari Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy davridan tortib, yettinchi rahbari Xoja Bahouddin Naqshband davrigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi bosqichni xojagoniya bosqichi, Xoja Bahouddin Naqshbanddan keyin boshlangan ikkinchi bosqichini esa naqshbandiya bosqichi deb atashimizga, mazkur tariqatning barcha davrlardagi umumiy nomini esa xojagon-naqshbandiya deb qo‘yishimizga asos bo‘ladi[10]. Uning X/XVI-XI/XVII asrlardan boshlab turli o‘lkalarda paydo bo‘lgan mahalliy tarmoqlarini esa ularning nomidan oldin naqshbandiya so‘zini qo‘shgan holda, masalan, naqshbandiya-mujaddidiya, naqshbandiya-mazhariya yoki naqshbandiya-xolidiya ko‘rinishida nomlagan ma’qul.

[9] Заринкӯб, Абдулҳусайн. Эрон тасаввуфи борасида изланиш. – Б.206-207.

[10] Razzoqov G‘,Rahimov K. Xojagon - Naqshbandiya tariqati va yetti pir. . – B.35.